

TA'LIM MUASSASALARIDA IQTIDORLI BOLALARNI ANIQLASH VA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MEHANIZMLARI (JISMONIY TARBIYA VA SPORT MISOLIDA)

Ilyosboyev Sirojiddin Baxtiyor o'g'li
ChDPU, maktabgacha boshlang'ich
ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ta'lim muassasalari o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, ularning birorta kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o'quvchilar safini kengaytirishga erishadi.

Kalit so'zlar: iqtidorli o'quvchi, yosh izlanuvchi, ta'lim jarayoni, omil, boshqaruv faoliyati, iqtidor, ilmiy.

KIRISH

Iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda jahon miqyosidagi buyuk kashfiyotlarni jamiyatimizning negizini tashkil etadigan buyuk allomalarimiz merosiga tayangan holda bugungi zamon talabalaridan kelib chiqib, xalq farovonligiga xizmat qiladigan buyuk kashfiyotlar yaratish ko'nikma va malakalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etdi.

Bilimli, iqtidorli bola nafaqat o'zining, balki xalq, millatning ham kelajagini belgilaydi. Iqtidorli yoshlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Shu o'rinda «Iqtidorli yoshlar kimlar?» degan savol paydo bo'ladi. «Iqtidor» arabcha «qodir bo'lmoq», «qila olmoq», shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha, shuningdek, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat'iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlash, yordam berish, iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish hamda ulardagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalarida o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, ularning qiziqishlari, iqtidorlarini ro'yobga chiqishi, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat

qilishlariga shart-sharoit yaratish lozim. Shuning uchun ham davlat iste'dodli yoshlarni alohida qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim muassasalarining iqtidorli o'quvchilari maxsus psixologik va pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Bunday o'quvchilarni maqsadli hayotga yo'llashda ta'lim muassasalarining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyati, chuqur bilim olishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

malakali o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan individual (yakka tartibda) ishlashga safarbar qilish;

ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy jamiyat ishlariga iqtidorli o'quvchilarni keng jalb etish;

iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda maktabda iqtidorli o'quvchilar haqidagi ma'lumotlar banki va ularni doimiy tashxislash monitoringini shakllantirish;

ular bilan ishlashning ilg'or pedagogik texnologiyalarini aniqlash;

oliy ta'lim muassasalari, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan yetuk mutaxassislar bilan hamkorlik qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Umumiy ta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash mazmuni quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin:

maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish;

chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish (fundamental fanlar, umumkasbiy fanlar);

oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va litsey talablariga asoslangan holda maktabda iqtidorli o'quvchilarning kasbiy, o'quv-ijodiy va tarbiyaviy tayyorgarligining qo'shimcha yo'nalishi va ta'lim xizmatlarini joriy etish.

Iqtidorli o'quvchini maqsadli tayyorlash dasturlarida ular egallashi zarur bo'lgan quyidagi omillar nazarda tutiladi:

fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish;

kompyuter bilimdonligi hamda dasturlashtirishni chuqur bilish;

chet tillaridan savodxonlik;

ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash, yangi fikr-mulohazalarni bildirish olish ko'nikma va malakalarini egallash;

soha bo'yicha yangiliklarni tezkorlik bilan egallash;

davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson sifatida o'zini namoyon etish.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda ustoz-shogird an'anasiga qat'iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonga ilmiy rahbar sifatida o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jalb etiladi. Bunday qobiliyatli o'quvchilarga ilmiy rahbar etib ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga

ega bo'lgan o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan o'qituvchilar tanlanadi.

Iqtidorli o'quvchilarning ilmiy rahbarlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturini yaratish va uni amalga oshirishga rahbarlik qilish;

iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni bilish va ularni o'z faoliyatida qo'llash;

yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish;

kompyuter texnologiyasi va video, audiotexnikalar, elektron darsliklarni keng qo'llash;

maqsadli dasturni muvaffaqiyatli bajarayotgan iqtidorli o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishlashni tashkil etishning o'ziga xos tizimi mavjud bo'lib, unda muassasada mavjud barcha sub'ektlar ishtirok etadi. Jumladan, maktab direktori va uning o'rinbosarlari, uslubiy birlashmalar, sinf murrabbiysi, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, ota-onalar hamda barcha o'qituvchi-murabbiylar shular jumlasidandir. Mazkur sub'ektlarning iqtidorli bolalar bilan ishlashda o'z vazifalari bo'lib, ular yagona maqsadni amalga oshiradilar.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ta'lim muassasalari o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, ularning birorta kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o'quvchilar safini kengaytirishga erishadi.

XULOSA

Shunday qilib, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, vatanimiz iqtidoriy salohiyatni dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi.

Shuningdek:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli bolalarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik mehanizmini yaratish;

iqtidorli bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish (o'quv reja, maqsadli dastur);

umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavjud pedagogik sub'ektlar imkoniyati va salohiyatini shu jarayonga safarbar etish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida «Iqtidorli bolalar maktabi», «Kichik akademiya»lar tashkil etish va ularda iqtidorli bolalarning qiziqishlariga ko'ra iqtidorlarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning bilan birga:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtidorli bolalarni erta aniqlash bo'yicha pedagogik, psixologik, ilmiy salohiyat, kasbiy salohiyat kompleks tashxis dasturlarini yaratish va uni amalga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish; ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktab, oila, fuqarolik jamiyati, ilmiy muassasalarning ijodiy-pedagogik hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari, shaxsga jismoniy va ruhiy salomatlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu yuqori faoliyatlarni bajarishning bir necha usullari mavjud, ammo odatda dunyoda amalga oshiriladigan usullar sportni va jismoniy tarbiyani hujjatlangan metodlar, o'zaro o'zgarishi yoki mashq turlari orqali rivojlantirish mumkin. Uslubiy rivojlanish esa, mashg'ulotlarni ozodligi, g'oyalar va maqsadlarga javob berishga erishishga yordam beradi. Asosan, uslubiy rivojlanish sportning zamonaviy usullari va yoshlarga qaraganda o'qitishi, jismoniy tarbiya va sport funksiyalarini bajarishni o'rgatish uchun muhimdir. Oliy o'quv yurtlarida o'qish jarayonida jismoniy madaniyatning shaxsni shakllantirish jarayoniga va kasbiy faoliyat turini tanlashga ta'sirini o'rganish uchun insonning jismoniy holati va sog'lig'ini yaxshilash vazifasini qo'yadigan doimiy va vaqtinchalik sharoitlarni ham hisobga olish kerak. Ikkinchisiga jismoniy tarbiyaning ahamiyati va rolini hisobga olish kiradi. Jismoniy madaniyat va sportning inson salomatligi, rivojlanishi va umumiy holati uchun ahamiyati juda katta. Kichik yoshdan boshlab ota-onalar, o'qituvchilar va ommaviy axborot vositalari - radio va televidenie o'zlarining bolalari uchun jismoniy faoliyatning noyob foydali tomonini ilhomlantiradilar va talab qiladilar va bolalarni sport bilan faol shug'ullanishga undashadi. Aynan shu yoshda sport odatda o'sayotgan organizmning to'g'ri va uyg'un rivojlanishini kuzatadigan tajribali murabbiylar va mutaxassislar nazorati ostida o'tkaziladi. Maktab yoshida bu rolni asosan maktabdagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari bajaradilar. 16 yoshga kelib, odamning o'zini anglashi etarlicha shakllanadi. Shu paytdan boshlab sport o'ynashning o'ynoqi tabiati shaxsni jismoniy tarbiya va sport unga olib keladigan barcha foydali va quvonchli narsalar to'g'risida jiddiy va to'liq xabardorlikka aylanadi. Ijobiy jihat shundaki, sport shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi, komplekslar va ozodlikni yo'q qiladi; jismoniy faoliyat, faol harakat aqliy ishdagi muvaffaqiyatlarga juda foydali ta'sir ko'rsatadi, bu o'quvchilar va talabalar uchun ortiqcha bo'lmaydi. Shu bilan birga, ularning jismoniy imkoniyatlarini mustaqil ravishda baholash va shunga mos ravishda ularning kuchini to'g'ri hisoblash zaruriyati paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jild. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediya- si» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016.
2. Yo'ldoshev X.K. Barkamol avlodni tarbiyalash oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasi. – T., 2012.



- Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: «Akademiya», 2017.
3. Кодирова Бузулайхо Тургуновна. "Формирование восприятия произведений искусства в профессиональной подготовке будущих учителей начальных классов." European research: innovation in science, education and technology. 2020.
4. .Kadirova B. "Psychological-pedagogical and methodological features of the formation of historical consciousness in primary school students." harmony 3: 12.